

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI

XITOIY TILIDA “人” KONSEPTI: “人” KONSEPTI ZAMIRIDAGI LINGVOMADANIY
- FALSAFIY – IJTIMOIIY MA’NOLAR TAHLILI*Umid Berdiyev**Tayanch doktorant**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O‘zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: odam 人, konsept 概念, ayol 女人, erkak 男人, oila 家庭, momaqaldroq 暴风雨, shamol 风, olov 火, suv 水, Daotsizm, Konvutsiychilik.

Annotatsiya: Xitoy tilidagi “Inson” tushunchasi xitoyshunoslikning yangi mavzularidan biridir. Bu mavzu xitoy tili va adabiyoti tarixida muhim o‘rin tutadi. “Inson” konseptsiyasi Xitoyning an’anaviy Konfutsiy ta’limotida falsafiy va tarixiy qarashlarni o‘z ichiga oladi.

“Inson” tushunchasining zamonaviy qadriyatlarini ushbu mavzuning filologik jihatlaridan iborat. “人” konsepti kognitiv – madaniyatshunoslik atamashunosligining asosli konseptlari turkumiga oid tushunchadir. Uni o‘rganish shunisi bilan muhimki, har qanday etnozabon birlik his – shakl frazeologiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Dunyodagi har qanday sotsio-madaniy ham jamiyat tomonidan yaratilgan muayyan konsept turmush tarzidan kelib chiqqan ma’nolar tizimida mujassam bo‘ladi.

Ushbu maqolada “inson” tushunchasining xitoycha so‘zlarini o‘zbek va boshqa tillarga o‘girishdagi ayrim muammolar va qiyinchiliklar muhokama qilinadi.

Xalqning tarixan buyukligini belgilovchi jihatlaridan biri uning ruhiy ta’limotidir. Ruhaniy tarbiya topgan, e’tiqodiga ega bo‘lgan xalq yengilmas kuch sohibi bo‘ladi.

Bu ruhiy quvvat milliy taraqqiyot sari undovchi omil bo‘lib, davlat qurilishi, fan, maorif, ta’lim – tarbiya, texnika, texnologiya, iqtisod, siyosat, gumanitar – ijtimoiy bilimlar taraqqiyotiga hissa qo‘shadi.

Xitoy tilida 人 konseptiga chuqurroq nazar tashlansa uning o‘ziga xosliklari dao ruhiy tarbiyasi o‘laroq yaqqol ko‘zga tashlanadi. Dao ruhiy tarbiyasining pirovard maqsadi komil inson, komil o‘quvchini tarbiyalab voyaga yetkazish g‘oyasidir.

CONCEPT "人" IN CHINESE: LINGUOCULTURAL PHILOSOPHICAL AND SOCIAL MEANINGS IN THE BASIS OF THE CONCEPT "人"

Umid Berdiyev

PhD student,

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: man人, concept概念, woman女人, man男人, family家庭, storm暴风雨, wind风, fire火, water水, Taoism, Confucianism.

Abstract: The “Human” concept in Chinese is one of new topics in Chinology. This topic has important role in the study of Chinese language and literary. The “Human” concept includes philosophical and historical views to Chinese traditional Confucian teachings.

The modern values of “Human” concept consist in the philological aspects of this topic. The concept of "rén" is a concept related to the group of basic concepts of cognitive-cultural terminology. It is important to study it because any ethnic language is closely related to the sense of unity - the phraseology of the form. Any socio-cultural concept created by any society in the world is embodied in the system of meanings arising from the way of life.

This article discusses some of the problems and difficulties of translating Chinese words of “Human” concept to Uzbek and other languages.

One of the factors that determine the historical greatness of a nation is its spiritual teachings. A nation that is spiritually educated and has faith will be the owner of invincible power. This spiritual power is a motivating factor for national development and contributes to the development of state building, science, education, education, technique, technology, economy, politics, humanities and social knowledge. If you take a closer look at the concept of ren in the Chinese language, its peculiarities are clearly visible, like Dao spiritual education. The ultimate goal of Dao spiritual education is the idea of raising a perfect person, a perfect student.

КОНЦЕПТ "人" В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ: АНАЛИЗ ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫХ, ФИЛОСОФСКИХ И СОЦИАЛЬНЫХ ЗНАЧЕНИЙ, ЛЕЖАЩИХ В ОСНОВЕ КОНЦЕПТА "人"

Умид Бердиев

Докторант

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:

мужчина 人, концепция 概念,
женщина 女人, мужчина 男人,
семья 家庭, молния 暴风雨,
ветер 风, огонь 火, вода 水,
даосизм, конфуцианство.

Аннотация:

Понятие «Человек» в китайском языке является одной из новых тем китаеведения. Эта тема занимает важное место в истории китайского языка и литературы. Понятие «человек» включает философские и исторические воззрения традиционного китайского конфуцианства.

Современные значения понятия «человек» состоят из филологических аспектов этой темы. Понятие "rén" — понятие, относящееся к группе базовых понятий когнитивно-культурной терминологии. Его изучение важно, поскольку в любом этническом языке тесно связано чувство единства – фразеология формы. Любая социокультурная концепция, созданная любым обществом мира, воплощается в системе смыслов, возникающих из образа жизни.

В данной статье рассматриваются некоторые проблемы и трудности перевода китайских слов понятия «Человек» на узбекский и другие языки.

Одним из факторов, определяющих историческое величие нации, является ее духовное учение. Народ, духовно образованный и имеющий веру, будет обладателем непобедимой силы. Эта духовная сила является мотивирующим фактором национального развития и способствует развитию государственного строительства, науки, образования, образования, техники, технологий, экономики, политики, гуманитарных наук и социальных знаний. Если присмотреться к понятию жэнь в китайском языке, то отчетливо видны его особенности, как и даосского духовного образования. Конечная цель духовного образования Дао – идея воспитания совершенного человека, идеального ученика.

KIRISH

Respublikamizda sharqshunoslik faniga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Sharqshunos kadrlar tarjimon, sinxron tarjimonlar tayyorlash muhim masala. Ilgari ishlatilib kelingan usul va uslublarini, nazariyalarini umumlashtirgan holda hozirgi zamon innovatsion talablari darajasiga ko'tarish ehtiyoji ortmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar mahkamasining, Oliy ta'lim Vazirligining bu borada qarorlari fikrimiz isbotidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi, 2018 yil 22 yanvardagi PF -5308-sonli «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik , innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to'g'risida»gi, 2019-yil 17-yanvardagi PF-5635-sonli «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Faol innovatsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to'g'risida»gi farmonlari va mavzuga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni to'laqonli tushunishga mazkur maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Xorijiy tillardagi soʻz va iboralarni ona tilimizga va ona tilimizdagi koʻp maʼnoli chuqur mazmunli soʻzlarni xorijiy tilga toʻgʻri tarjima qilish talabi xorijiy tillardagi soʻz va terminlarning konsept maʼnolarini mukammal bilishni taqozo etadi.

XIX asr oxiri XX asr boshida mavjud lingvistik oʻlchamlar antropolingvistika meʼyorlaridagi tub mohiyatini teran tushunishni talab qilmoqda. Xitoy tilidagi konseptlarni oʻrganish bu borada ahamiyatlidir. Ular orasida “人” konsepti muhim. Uni hozirgi zamon nazariy frazeologiyasidagi ulkan va murakkab muammo deyilsa toʻgʻri boʻladi. Falsafa fanida ham “人” konsepti eng qiyin tushuncha hisoblanadi. Jahon frazeologiyasida “人” konseptiga yondoshuvlar turli xil boʻlib, toʻrt yoʻnalishga ajratiladi.

Birinchi yoʻnalish - tilni “unda inson aks etganligi” jihatidan oʻrganish. Bu vazifani hal etish uchun jahon tillari manzarasidan foydalaniladi. Bunda til birliklarining konseptlar sifatida qoʻyilishi ahamiyatli rol oʻynaydi.

Ikkinchi yoʻnalish - barcha fanlar jamlanma bilimlari asosida tilning irfoniy xususiyatlarini oʻrganar ekan, unda 人ning madaniy- kognitiv oʻrnini aniqlaydi.

Uchinchi yoʻnalish - antropomarkaz lingvistikasi boʻlib, bu yoʻnalish orqali 人da til qanday mavjud degan masala oʻrganiladi.

Toʻrtinchi yoʻnalish - kommunikativ – muloqot lingvistikasi gʻoyalari oqimida rivojlanib borar ekan 人ni madaniyatlararo aloqalar subyekt hamda obyekt sifatida oʻrganadi.

“人” konsepti kognitiv – madaniyatshunoslik atamashunosligining asosli konseptlari turkumiga oid tushuncha dir. Uni oʻrganish shunisi bilan muhimki, har qanday etnozabon birlik his – shakl frazeologiyasi bilan chambarchas bogʻliq. Dunyodagi har qanday sotsio-madaniy ham jamiyat tomonidan yaratilgan muayyan konsept turmush tarzidan kelib chiqqan maʼnolar tizimda mujassam boʻladi. Bu konseptni oʻrganishda tildagi frazeologik tarkibni kognitiv – madaniy tadqiq qilish kerak boʻladi. “人” konseptini undagi epitetlarning rang barangligi asosida oʻrganish madaniy etnik kognitiv tushunchalarning tub mohiyatini ochib beradi.

Nazariy frazeologiyada “人” konsepti boʻyicha bir necha tadqiqotlar qilingan boʻlsa-da, uni lingvo-falsafiy-etnomadaniy yondoshuvi boʻyicha toʻliq ochib berilmagan. Oʻziga xos tadrijiy tarixiy, falsafiy, lingvomadaniy tarkibga ega boʻlgan “人” konseptini oʻrganish xitoy xalqining dunyoqarashini, milliy mentalitetini batafsil anglab yetish va uni boshqa tillarga oʻgirishda aynan muqobil soʻz topa olish imkonini yaratadi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, ushbu ilmiy maqolada xitoy tilidagi “人” konseptiga xos boʻlgan maʼno tashuvchi sema epitetlar oʻrganiladi.

Istalgan til vakillarining ijtimoiy–siyosiy fikrlashidan milliy mentalitetidan obraz yaratuvchilik badiiy-diniy mifologik talqinlaridan taʼsirchanlik darajasidan ong ustqurmasi kayfiyatlarining rang –barangligidan, etnik – etnologik nutq barkamolligidan kelib chiqib xitoy tilidagi “人” konseptining ijobiy va salbiy qirralari namayon boʻladi.

Osiyoliklarning dunyo qarashi, fikr yuritishi, obʼektiv va subʼektiv oʻziga xosliklari frazeologiya, aforizm, xalq ogʻzaki va yozma adabiyotida ifodaviylik imkoniyatlarining turlichaligiga asoslanadi.

Dunyodagi eng koʻhna madaniyatga ega boʻlgan xitoy xalqi tamaddun zinalaridan ogʻishmay oshib, evolyutsion kurashishda taraqqiyot choʻqqisi sari koʻtarilishda davom etmoqda. Ushbu tadrijiy oʻsish pogʻonadan – pogʻonaga yuqorilar ekan, quyi bosqichda erisha olgan natijalarini olamni anglab yetish istagida oʻz falsafiy, tarixiy milliy mentalitetiga jamlab boradi. Asrlar davomida

til, ieroglif yozuvi, an'anaviy fikr talqini, ruhiy tarbiya, tevarak olam bilan baqamti uyg'unlikka erishib, komillik axtarib, umr guzaronlik qilish xitoyliklar ongiga, zehniga, shuuriga lingvistik va diniy dunyoqarashlariga singib konseptik asosiy tamoyillariga aylanib bo'lgan.

Inson va olam munosablari insoniyat falsafiy fikrida "Borliq va Men" nazariy masala sifatida alohida o'ringa ega. Xitoy tilining jozibadorligi, jur'atliligi, ohangdorligi, ifodaviyligi, kayfiyatdoshligi, rang-barangligi, tashqi olamning – borliqning mazkur sifatlari bilan chambarchas bog'liq.

Xitoy dao ta'limotiga e'tibor qaratsa xitoy va xitoyliklar bilan bog'liq etnolingvo–falsafiy–madaniy masalalarga oydinlik kiradi. Birgina yuzaki nigoh orqali chuqur tarixiy ildizga ega bo'lgan ko'p sonli, ko'p milat va elatli xalqning ustivor hayot g'oyasini ilg'ab olish qiyin. Biroq asosiy jihatlaridan ilmiy– nazariy tomonlama xabardor bo'lish ilmiy maqola, tadqiqot ishi va h.k.z.lar yaratishga kifoya bo'ladigan manba bera olishi shubhasiz.

Xalqning tarixan buyukligini belgilovchi jihatlarida biri uning ruhiy ta'limotidir. Ruhan tarbiya topgan, e'tiqodiga ega bo'lgan xalq yengilmas kuch sohibi bo'ladi. Bu ruhiy quvvat milliy taraqqiyot sari undovchi omil bo'lib, davlat qurilishi, fan, maorif, ta'lim – tarbiya, texnika, texnologiya, iqtisod, siyosat, gumanitar –ijtimoiy bilimlar taraqqiyotiga hissa qo'shadi. Xitoy tilida 人 konseptiga chuqurroq nazar tashlansa uning o'ziga xosliklari dao ruhiy tarbiyasi o'laroq yaqqol ko'zga tashlanadi. Dao ruhiy tarbiyasining pirovard maqsadi komil inson, komil o'quvchini tarbiyalab voyaga yetkazish g'oyasidir.

Bu ta'limotda 人 "o'quvchi" maqomida hisoblanadi. "人" konseptidagi/ren/da mujassam bo'lgan zamiriy ma'nolardan anglanadiki, 人 o'quvchi, 人 o'qituvchi, 人 er, 人 xotin, 人 ota, 人 ona, 人 erkak, 人 ayol, 人 go'dak, 人 qariya, 人 daos.

Xitoy tilida "sin xua" ieroglifi 人 / jen quydigacha talqin etilgan: 人 /jen–evolyutsion kelib chiqishiga ko'ra antropopitik bo'lib, u ish qurollari yarata oluvchi, ish qurollaridan foydalanuvchi, tashqi dunyo bilan nutq orqali muloqot qila oluvchi mavjudotdir. Xitoy tilidagi ushbu ierogliff qurollar yasay oladigan, tabiatni, atrof–muhitni o'zgartira oladigan, nutqdan foydalanib o'z atrfidagi qondoshlari bilan muloqot olib bora oladigan ongli, oliy mavjudot kabi ma'nolarni anglatadi. Jen ieroglifi – qo'sh haydab ketayotgan 人 shaklini ongda aks ettiradi.

Odam 人jen leksemasidan quydagi ma'nolarni anglash mumkin:

- 人 shaklidagi mavjudot;
- ish qurollari yarata oluvchi;
- ish qurollaridan foydalana oluvchi;
- nutq, til yordamida muloqot qila oluvchi.

Xitoy xalqi odam "人" konseptiga o'ziga xos yondashadi va 人 deyilganda ular quydagi epitetlarni ko'z oldiga keltirishadi:

- 1) ism 名字, (go'dak 婴儿, pekinlik kampir 北京老太太, shaxs 道士);
- 2) Xitoyda yashovchi (mamlakat 国家, bayroq 国旗, xitoylik 中国人, vatan 祖国);
- 3) Ishlayotgan (ish 工作, kasb 职业);
- 4) Aniq hayotda mavjud (hayot 生命, ruhiy hayot 生活, uning qilmishlari, o'tmishdagi ishlar 事迹, taqdir 缘分);
- 5) Do'st (o'rtoq 朋友, do'stlik 友情, sodiq do'st 仗义).

"人" konsepti obrazligiga ko'ra quydagicha tarkibga ega:

1. Erkak/ayol 性别jins bo'yicha: 1. Erkak 男人 2. Ayol 女人.

2. Bolalar孩子们 /ota-onalar父母,/ oila 家庭, muhabbat爱情, ona妈妈, ota爸爸.
3. Er/xotin er丈夫, xotin妻子, oila ahvoli家庭情况 , qarindoshlar亲属.
4. O'quvchi/o'qituvchi, o'quvchi学生, o'qituvchi老师, fan科学, tirishqoq 努力, o'qimoq学习.

Xitoyliklar ongida 人 qarama-qarshiliklardan xoli mavjudot. Unda ijobiy jihatlar salbiy jihatlaridan kuchliroq: ijobiy jihatlari (epitetlari):

-saxiy善良, halol诚实, kulguli幽默, kamtarin谦虚, yumshoq ko'ngil软心, faol活泼, chaqqon灵巧, muloyim可爱, iqtidor sohibi有才, mung'iz萌萌哒, mustahkam密切, yumshoq脆弱,温柔的, salohiyatli才华, mustaqil独力, kuchli坚强.

Xitoy tilida 人 aniq konsept bo'lib, bu o'quvchining yo'lidir. O'quvchining taqdirini u ning sodir etayotgan xatti harakatlari belgilaydi. Shu sababli unda salbiy fikrlar emas, balki ijobiy fikrlar mujassam.

Borliq bilan qarama-qarshiliklar emas, balki uyg'unlik maqomini topib komillik sari intiladi. Bundan tashqari xitoyliklar go'zallikni ulug'laydilar. "人" konseptida ular quydagi epitetlarni ko'proq his qiladilar: ¹

- Go'zallik美;
- Kelishgan erkak帅哥;
- Chiroyli kishi漂亮的;
- Tashqi ko'rinish长相;
- Brend品牌;
- Uslub风格 va h.k.z.

Xitoy tilida "人" konseptining salbiy epitetlari kamroq, ya'ni:

- Xudbin 自私;
- Injiq 调皮;
- Ayyor狡猾的;
- Yomon 人坏人;
- O'g'ri小偷;
- Aroqxo'r酒鬼;
- Baland bo'yni高个子;
- Past bo'yni矮个子.

Sharqshunos S.S. Hoshimov o'zining "Van Yanminning dunyoqarashi" nomli ishida shunday yozadi: Narsa va hodisalarning o'zaro hamkorligi ularning o'zgarishi orqali ta'minlanadi. Yan va Inning o'zaro harakati natijasida 6 ta kategoriya paydo bo'ladi. Bular momaqaldroq, shamol, olov, suv, qayta tug'ilish va osoyishtalik. Ushbu me'yorlar Osmon, Yer va Inson bilan bog'liq muammolarni yoritishda keng qo'llanilgan.

Konfutsiychilik qadimgi Xitoyda vujudga kelgan va hozirgi kunga qadar o'z ta'sirini yo'qotmay kelayotgan falsafiy maktabdir. Konfutsiy – Kongzi (er. av. 551-479 yy) ta'limoti an'analariga qat'iy rioya qilgan mutafakkirdir. .. Konfutsiy o'zi haqida shunday deb yozadi:

¹Беляева, Е. В. Репрезентация концепта «человек» в русском и китайском языках / Е. В. Беляева, Лэй Тэн.

“Eskini bayon qilaman va yangini yaratmayman”. Konfutsiy tabiat va din falsafasiga unchalar ahamiyat qaratmaydi, balki inson (人)ni diqqat markaziga qo'yadi. U va uning izdoshlari jamiyatning parchalanib ketishidan bezovta bo'ladilar, asosiy e'tiborni insonning o'z atrofida qiladilar va jamiyatga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalashga qaratadilar. Shaxs o'zi uchun emas, balki jamiyat uchun shaxsdir. Konfutsiychilik axloqi insonni ijtimoiy vazifasi bilan bog'liq ravishda tushunadi, ta'lim- tarbiyani esa, insonni ana shu vazifani bajarishga olib keladigan omil sifatida idrok qiladi. Konfutsiychilik sharq xalqlari ongida shunday axloqiy me'yorlarni shakllantiradiki, o'zining omma ongidagi ta'sir kuchi jihatidan uni Injildagi o'nta diniy buyruq bilan solishtirish mumkin bo'ldi. Bu – avvalo, besh muqumlik yoki besh fazilat:

- insonparvarlik 人道;
- burchga sodiqlik 忠心;
- tavfiqlik 信仰者;
- aqlga muvofiqlik 神志;
- haqiqatgo'ylikdir 公道.

Shuningdek, neokonfutsiychilik besh aloqa qoidasini, ya'ni jamiyatdagi munosabatlar tizimini ham ishlab chiqdi. Bular davlat bilan fuqarolar o'rtasidagi, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartiblashtiradi...”².

Xitoy tilida “人” konsepti kasb etgan kayfiyatlardan biri - “人 – daos”dir; buni anglash uchun Daotsizm ta'limotiga nazar tashlanmog'i kerak. Mazkur ishda shunday ma'lumotlar keltirib o'tiladi: “Dao” ta'limotining asoschisi Lao Szi hisoblanadi. Uning ta'limotiga ko'ra tabiat, jamiyat va butun borliqning asosi “Dao” hisoblanadi (yo'l, haqiqat, tartib.). Dao haqidagi qarashlar konfutsiychilikda ham bo'lgan. Chunki bu fikrlar ancha oldin mavjud edi, shuning uchun bu ikki ta'limotning o'xshash jihatlari ko'p. Konfutsiy Daoni jamiyatda muayyan tartiblarni yaratuvchi samoviy qonunlar tajassumi deb hisoblagan...³

An'anaviy konfutsiychilik asosiy tushunchalari quydagilar: “Li” (urf-odat va marosimlarga rioya qilish, udum), “Sin” (axloqiy me'yorlarni amalga oshirish); In (ijobiy ibtido); “Yan” (salbiy ibtido); “Dao” (Osmon koinot yo'li va u muayyan tartib va qonunga binoan mavjud,uning ifodasi esa insonning xulq - atvorli bo'lishidir), “Chjen” (insonparvarlik), “I” (burch), “Sin” (samimiylik) va boshqalar”.

Xitoy tilida “人” konsepti Ye. V. Belyaeva va Ten Ley muallifligidagi “Репрезентация концепта “Человек” в русском и китайском языках” ilmiy ishida qiyosiy tadqiq qilingan. Mazkur ilmiy ishda “人” konsepti lingvo - madaniy jihatdan o'rganib chiqilgan⁴.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, xitoy tilidagi “人” konsepti ijtimoiy - tarixiy-falsafiy –lingvo –madaniy ta'limotlarni o'z ichiga qamrab olgan lingvistik birlik xitoyshunos mutaxassislar, tadqiqotchilar, tarjimonlar, xitoy tilini o'rganuvchilar mazkur tildagi konseptlarga ijobiy va ehtiyotkorna munosabatda bo'lmog'i lozim, chunki har bir konsept chuqur etno,tarixiy, falsafiy, madaniy, axloqiy, diniy ta'limotlarga borib taqaladi. Xitoy tilidagi kognitiv konseptlar xitoy xalqining mentaliteti, axloq normalari, diniy muqaddas, ma'rifiy – mafkuraviy qarashlarini aks ettiradi.

² Хошимов С.С.Ван Янминнинг дунёкараши. Т. 2015. Диссертация иши.

³ Ko'rsatilgan manba

⁴ <https://moluch.ru/conf/phil/archive/178/10653/> (дата обращения: 10.09.2020).

Tillar o'rtasidagi mutanosiblikni ilg'ab olish 人lar, xalqlar, davlatlararo hamjihatlik va hamkorlikka erishtiruvchi muhim vositadir.

Ushbu maqolada ilgari surilgan fikr shuki, hozirgacha mavjud va ma'lum ilmiy – nazariy adabiyotlarda mujassamlashgan bilimlarni ijobiy o'zlashtirgan holda bundan keyingi tadqiqotlarimizda lingvistik konseptlarni o'rganish jarayonida semalarning, ierogliflarning xitoy xalqining tarixiy - milliy an'alariga omixtalashgan ta'limotlari asosida kelib chiqqanligini nazardan qochirish kerak, degan fikrga kelinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. М.: Гнозис, 2004.
2. Китайский словарь иероглифов «Синьхуа» [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://xh.5156edu.com/html3/2696.html> (дата обращения: 17.03.2016).
3. Лопатин В. В., Лопатина Л. Е. Иллюстрированный толковый словарь современного русского языка. М.: ЭКСМО, 2007.
4. Ожегов С. И. Толковый словарь русского языка. М.: Гос. изд-во иностр. и нац. словарей, 1963.
5. Беяева, Е. В. Репрезентация концепта «человек» в русском и китайском языках / Е. В. Беяева, Лэй Тэн. — Текст : непосредственный // Филология и лингвистика в современном обществе : материалы IV Междунар. науч. конф. (г. Москва, июнь 2016 г.). — Москва : Буки-Веди, 2016. — С. 63-65. — URL: <https://moluch.ru/conf/phil/archive/178/10653/> (дата обращения: 10.09.2020).
6. 俄汉词典
7. 现代汉语词典